



TERRORISM-THREAT TO PEACE!

Amonkulov Avazbek Mahmatyaqub oglu

University of World Economy and Diplomacy,
1st year student of the Faculty of International Law

Tel:+998904448839

ORCID:0009-0009-0675-769X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18516638>

ARTICLE INFO

Received: 30th January 2026
Accepted: 06th February 2026
Online: 07th February 2026

KEYWORDS

Terrorism, peace, security, radicalization, extremism, global threats, international law, national security strategy.

ABSTRACT

This article is dedicated to the fact that in modern life, the spiritual threat is becoming one of the most sensitive issues, more than the threat of weapons. The article widely promotes the ideology of effective counter-terrorism at a time when terrorism is on a large scale, that is, at a time when the transformation of international and regional conflicts is continuing. This article discusses in detail the role, essence, and consequences of these movements in the life of society. The study presents analytical conclusions based on legal documents, state programs, and international experience adopted in the Republic of Uzbekistan to combat terrorism and extremism.

TERRORIZM-TINCHLIKKA TAHDID!

Amonkulov Avazbek Mahmatyoqub o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

Tel:+998904448839

ORCID:0009-0009-0675-769X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18516638>

ARTICLE INFO

Received: 30th January 2026
Accepted: 06th February 2026
Online: 07th February 2026

KEYWORDS

Terrorizm, tinchlik, xavfsizlik, radikallashuv, ekstremizm, global tahdidlar, xalqaro huquq, milliy xavfsizlik strategiyasi.

ABSTRACT

Mazkur maqola hozirgi zamonaviy hayotda qurolli tahdidlardan ko'ra ma'naviy tahdid eng nozik masalalardan biriga aylanib borayotganiga bag'ishlangan. Maqolada terrorizm katta masshtabni ya'ni xalqaro va mintaqaviy mojarolar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda terrorizmga qarshi samarali kurashish mafkurasi keng ilmiy tomondan ilgari surilgan. Ushbu maqolada jamiyat hayotida mazkur oqimlarning o'rni, mohiyati va oqibatlari xususida atroflicha bahs yuritadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish borasida qabul qilingan huquqiy hujjatlari, davlat dasturi va xalqaro tajribalar asosida tahliliy xulosalar keltirilgan.



So'nggi o'n yilliklarda terrorizm butun dunyo uchun eng jiddiy xavfsizlik tahdidlaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Bugungi kunda biror davlat ham bu xavfdan butunlay xoli emas. Terrorizmni jamiyat, davlat va global tinchlikka ko'rsatadigan tahdidlari bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy jarayonlar deyish mumkin. Maqolada terrorizmning mohiyati, uning huquqiy va diniy kontekstdagi xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Terroristik harakatlar insoniyat tinchligiga, barqarorlik va taraqqiyotga jiddiy putur yetkazmoqda. U nafaqat inson hayoti, balki iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy barqarorlik va xalqaro munosabatlar tizimiga ham katta zarar keltiradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, terrorizmga qarshi kurashni milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Bugungi kunda mamlakatda ekstremizm va terrorizmga qarshi chora-tadbirlar tizimli asosda olib borilmoqda. Shu bois, "Terrorizm - tinchlikka tahdid" mavzusi ijtimoiy, siyosiy va huquqiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi shundan iborat: Terrorizmning tinchlikka tahdidi xavfini kamaytirish, unga qarshi samarali kurashish, unga qarshi kurashish uchun istiqbolli yo'llarni tavsiya etish va terrorizm xavfi past bo'lgan davlatlar tajribasini o'rganib, uni mamlakatimiz qonunchilik jarayonida qo'llanilishi uchun takliflar orqali taqdim etish.

Adabiyotlar tahlili

Terrorizm va ekstremizmning zamonaviy shakllari ijtimoiy, siyosiy va

raqamli omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, turli tadqiqotlarda ushbu jarayonning ko'p qirrali tabiati ta'kidlanadi. Onlayn radikallashtirish masalasi zamonaviy xavfsizlik muammolari markazida turadi. Turli psixologik va sotsiologik tadqiqotlar internet va ijtimoiy tarmoqlarning radikal g'oyalarni tarqatishdagi roli kuchayganini ko'rsatadi.¹

Internetning global imkoniyatlari ekstremistik kontentning tez tarqalishi va yoshlar ongiga bevosita ta'sirini kuchaytirgani ilmiy jihatdan asoslangan. Ijtimoiy ajralish, diskriminatsiya, iqtisodiy tengsizlik kabi omillar ekstremizmning ildiz omillari sifatida ko'rsatiladi. Jamiytdan chetlanish hissi, adolatsizlik va psixologik bosimlar radikallashtirishga olib kelishi mumkinligi ko'plab ijtimoiy fanlar adabiyotida tasdiqlangan.²

Sog'liqning ijtimoiy omillari, ijtimoiy resurslarga kirish imkoniyati va psixologik holat radikallashtirish jarayonida muhim o'rin tutishi haqidagi ilmiy yondashuv ham so'nggi yillarda kuchaymoqda. Terrorizm va ekstremizmning siyosiy-huquqiy jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa ekstremizmni maqsadlarning radikaligi, terrorizmni esa zo'ravonlik taktikasidan foydalanish bilan farqlash zarurligi ta'kidlanadi.³

Bunday yondashuv ekstremistik guruhlarning qanday sharoitlarda terror amaliyotiga o'tishini tushunishga imkon beradi. Jinoyatshunoslik adabiyotlari esa terrorizmni jinoyat, siyosiy bosim vositasi va ijtimoiy xavfsizlikka tahdid

¹ Frontiers in Psychology, 2022.

² Rousseau va boshqalar, 2015; Journal of Social Issues, 2020.

³ Perspectives on Politics, 2018



sifatida ko'rib chiqadi; terrorizmga qarshi kurashda jinoyat-adliya tizimining muhim o'rni qayd etiladi⁴

Shuningdek, adabiyotlarda ekstremizmga qarshi kurashda davlat markazli yondashuv o'rniga jamoat, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati oshayotgani ko'rsatilgan. Mahalliy tashkilotlar, diniy ulamolar, ta'lim muassasalari va yoshlar bilan ishlovchi tuzilmalar profilaktik faoliyatda samaraliroq natija berishi mumkinligi alohida ta'kidlanadi⁵. Islom dini zo'ravonlik va ekstremizmni "fasod" va "g'ulu" tushunchalari orqali qoralaydi⁶

Yuqoridagi tadqiqotlar terrorizm va ekstremizmning sabablari va ko'rinishlari keng turdagi omillar bilan bog'liqligini, radikallashtirish jarayonida internet, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, psixologik holat, sog'liq va tenglik kabi omillar o'zaro ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bir qator bo'shliqlar ham aniqlangan: Markaziy Osiyo kontekstida radikallashtirish jarayonining empirik tahlili yetishmaydi; rehabilitatsiya va reintegratsiya dasturlari bo'yicha ilmiy ma'lumotlar kam; standartlashtirilgan ma'lumot bazalarining cheklanganligi esa qiyosiy tadqiqotlar samaradorligini kamaytiradi. Umuman olganda, adabiyotlar terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda kompleks yondashuv - huquqiy mexanizmlar, ijtimoiy profilaktika, ta'lim, raqamli xavfsizlik va hamjamiyat ishtirokini birlashtirish - eng samarali yo'l ekanligini ko'rsatadi.

⁴ Annual Review of Criminology, 2022

⁵ Redalyc, 2021

⁶ SamMuslim(O'zbekiston musulmonlari idorasi, Samarqand vakilligi). "Diniy ekstremizm va

Metodologiya

Metodologiya -muayyan tadqiqot mavzusini keng va aniq yoritish uchun qo'llanadigan ilmiy usullar majmuidir. Ko'plab olimlar metodologiyani "ilmiy yo'lni yoritadigan chiroq" deya ta'riflaydi. Mazkur tadqiqotda bir nechta ilmiy yondashuvlardan foydalanildi:

1. Analitik-metodik yondashuv - terrorizm tushunchasi, uning shakllari va evolutsiyasi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

2. Qiyosiy-huquqiy tahlil -xalqaro maydondagi (BMT, xalqaro tashkilotlar va davlatlar) terrorizmga qarshi kurash tizimi bilan O'zbekiston tajribasi qiyosiy huquqiy nuqtayi nazardan solishtirildi.

3. Statistik tahlil -BMT, Global Terrorism Index (GTI) va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar o'rganildi; terroristik harakatlarning dinamikasi, geografik tarqalishi va oqibatlari baholandi.

4. Sotsiologik yondashuv - ekspert maqolalari, analitik sharhlar va xalqaro xavfsizlik reytinglari tahlil qilindi.

5. Mantiqiy umumlashtirish va deduktiv tahlil - terrorizmning tinchlik jarayonlariga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sirlari aniqlanib, muammoni hal etishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar va huquqiy tahlil

Terrorizm bugungi davrda diniy ekstremizm, siyosiy radikalizm, millatchilik yoki separatizm shaklida namoyon bo'lmoqda. Jarayonlarda axborot texnologiyalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlarning roli ortib

terrorizmga qarshi kurashning diniy manbaviy asoslari"



bormoqda. Yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi radikal g'oyalar turli shakllarda targ'ib qilinmoqda. Bundan tashqari, ekstremistik va terroristik jinoyatlar milliy madaniyat va ijtimoiy qadriyatlarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi⁷ O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunida terrorizmga quyidagicha ta'rif beriladi:⁸ "Terrorizm - siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa ne'matlarga zarar yetkazishga qaratilgan zo'rvonlik harakati." Terroristik harakatlar hudud va auditoriya tanlamaydi; ularning maqsadi qo'rquv, vahima, beqarorlik yaratish orqali siyosiy yoki mafkuraviy manfaatga erishishdir. Natijada davlat suvereniteti, konstitutsiyaviy tartib, jamiyat xavfsizligi va tinchligi jiddiy xavf ostida qoladi.

Global Terrorism Index (GTI) bo'yicha tahlil (2021–2025) GTI hisobotlariga ko'ra, so'nggi yillarda global terrorchilik landshafti sezilarli darajada o'zgargan⁹: 2021-yil: hujumlar soni 5 226 taga yetgan, o'limlar 1,2% ga kamaygan; Sahel mintaqasida global o'limlarning 48% sodir bo'lgan. 2022-yil: Sahel dunyodagi eng halokatli terrorizm markaziga aylandi; G'arbda mafkuraviy motivli hujumlar oshdi. 2023-yil: terrorchilik o'limlari 22% ga oshib, 8 352

taga yetdi; 7-oktabr Hamas hujumi keskin o'sishga sabab bo'lgan. Burkina-Faso birinchi o'ringa chiqdi. 2024-yil: o'limlar 13% ga kamaygan bo'lsa-da, terrorizm ta'sir ko'rsatgan davlatlar soni 66 taga oshgan; Sahel global o'limlarning yarmidan ko'pini tashkil qilgan.

Mazkur ma'lumotlar terrorizmning geografik markazi Yaqin Sharqdan Afrika mintaqasiga siljiganini, G'arb davlatlarida esa mafkuraviy ekstremizm kuchayganini ko'rsatadi.

Terrorizmga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslari Terrorizmga qarshi global tizimning asosi quyidagi xalqaro hujjatlardan iborat: BMT Nizomi - tinchlikni saqlash va xavfsizlikni mustahkamlashga oid asosiy prinsiplar¹⁰. BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-son rezolyutsiyasi - davlatlarni terrorizmni moliyalashtirishga qarshi qat'iy choralar ko'rishga majbur qiladi.¹¹ 1999-yilgi Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya - terrorizmni moliyalashtirishni jinoyat deb belgilaydi. Aviatsiya, diplomatik vakillar, yadro materiallari xavfsizligiga oid konvensiyalar. Markaziy Osiyo mintaqasida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) va uning RATS tuzilmasi terrorizmga qarshi ma'lumot almashish, qo'shma amaliyotlar va hududiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi¹². O'zbekistonning asosiy huquqiy bazasi: "Terrorizmga

⁷ Ro'ziyoyeva G. Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarning madaniyatimizga salbiy ta'siri. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies,

⁸ O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun, 1999-yil 15-dekabr, O'RQ-720.

⁹ Global Terrorism Index (GTI). Vision of Humanity.

¹⁰ United Nations. Charter of the United Nations

¹¹ UN Security Council Resolution 1373(2001)

¹² Shanghai Cooperation Organisation, Regional Anti-Terror Structure (RATS).



qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun, Jinoyat kodeksi (terrorizmga oid moddalari). Xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilikning uzviyligi terrorizmga qarshi kurash samaradorligini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy, statistik va huquqiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy terrorizm global xavfsizlikka tahdid soluvchi eng murakkab va dinamik hodisa bo'lib qolmoqda. Tadqiqot onlayn ekstremistik nutqni diniy, mafkuraviy va nafrat kontekstlari bo'yicha tahlil qiladi va radikallashtirish jarayonini modellashtiradi¹³ Terrorchilik harakatlarining geografiyasi, shakllari va motivlari o'zgarib borayotgani sababli unga qarshi kurash strategiyalari ham doimiy ravishda yangilanib borishni talab etadi. Mamlakatda mazkur oqimga qarshi kurash uchun bir qancha huquqiy hujjatlar qabul qilinganligiga qaramay bir qancha radikal oqimga kirish holatlari aniqlanmoqda. Bu qabul qilingan huquqiy hujjatlatni amaliyotda yetarlicha tadbir etilmayotganidan dalolat.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, terrorizm inson hayoti va mafkurasiga real xavf vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. U nafaqat bevosita zo'rovonlik orqali, balki qo'rquv, beqarorlik va ishonchsizlik muhitini shakllantirish orqali ham jamiyatga zarar yetkazadi. Terrorizmga qarshi samarali kurash faqat kuch ishlatish bilan emas, balki huquqiy islohotlar, xalqaro hamkorlik, yoshlarni ekstremistik g'oyalardan himoyalash va ta'lim-tarbiyani kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Tinchlik va barqarorlikni

ta'minlash har bir davlatning va har bir fuqaroning umumiy mas'uliyati hisoblanadi.

Terrorizm xavfiga qarshi kurash uchun takliflar

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida quyidagi mulohazalar va takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, Global Terrorism Index ma'lumotlari terrorizm epitsentrlarining Yaqin Sharqdan Afrika mintaqasiga siljigani, demokratik institutlari zaif, iqtisodiy tengsizlik yuqori bo'lgan davlatlarda terror guruhlarining faolligi oshganini ko'rsatadi. Shu bois xalqaro hamjamiyat ushbu mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashi, mahalliy hukumatlar bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozim. Terrorizm faqat harbiy choralar bilan emas, balki ta'lim, barqaror rivojlanish, korrupsiyani kamaytirish kabi keng ko'lamli ijtimoiy dasturlar orqali kamaytirilishi mumkin. Ikkinchidan, terrorizmning moliyaviy manbalarini to'xtatish global xavfsizlikning asosiy shartidir. BMning 1373-sonli rezolyutsiyasi va 1999-yilgi Konvensiya talablariga muvofiq, davlatlar o'rtasida moliyaviy monitoring tizimlari, bank operatsiyalari bo'yicha shubhali tranzaksiyalarni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Ayniqsa, kriptovalyuta orqali moliyalashtirish xavfi oshib borayotgan hozirgi davrda xalqaro moliyaviy tizimning yagona standartlariga ehtiyoj kattadir. Uchinchidan, radikal g'oyalarning tarqalishida internet va ijtimoiy tarmoqlarning roli keskin ortgani sababli, axborot xavfsizligini ta'minlash strategik ahamiyat kasb etadi.

¹³ Kursuncu, Ugur; Gaur, Manas; Castillo, Carlos va boshqalar. "Modeling Islamist Extremist

Communications on Social Media Using Contextual Dimensions: Religion, Ideology, and Hate". 2019



Yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ekstremistik kontentni vaqtida aniqlash, uni bloklash, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ma'rifiy, vatanparvarlik va tanqidiy fikrlashga undovchi sifatli kontentni ko'paytirish zarur. "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilini amaliy mexanizm sifatida kuchaytirish bu borada eng samarali usullardan biridir. To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasida terrorizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari puxta yaratilgan bo'lsada, amaliyotda profilaktika tizimini yanada kuchaytirish muhim. Xususan, mahalla, ta'lim muassasalari, masjidlar va yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikda erta radikallashtirishni aniqlash dasturlarini kengaytirish lozim. Yoshlar uchun psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlari, kasb-hunar o'qitish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish kabi omillar radikalizm profilaktikasida muhim o'rin tutadi. Beshinchidan, mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish zarur. ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyati ijobiy natijalar bermoqda, biroq qo'shma operatsiyalar,

chegara xavfsizligi va ma'lumot almashinuvi mexanizmlarini kuchaytirish orqali bu tizimning samaradorligini oshirish mumkin. Mintaqa davlatlari o'rtasida yagona terrorchilikka qarshi axborot bazasini yaratish ham xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Oltinchidan, terrorizmning ijtimoiy-psixologik ildizlarini bartaraf etish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Jamiyatda adolat, bag'rikenglik, inson huquqlariga hurmat kuchli bo'lgan muhitda radikal g'oyalar ildiz otmaydi. Shu sababli davlat siyosati ham xavfsizlik choralari, ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga birdek e'tibor qaratishi lozim. Umuman olganda, zamonaviy terrorizmga qarshi kurash harbiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'rifiy choralarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi. Global hamkorlik, milliy huquqiy mexanizmlarning takomillashuvi, axborot xavfsizligi va yoshlarga oid siyosatning kuchaytirilishi tinchlikni saqlashning eng asosiy omillaridir..

References:

1. BMT(UN) nizomi-Terrorizmga qarshi xalqaro asos Manba: <https://www.un.org/en/about-us/un-charter> BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-son rezolyutsiyasi (2001-yil) — terrorizmga qarshi kurash bo'yicha eng muhim hujjat. Manba: [https://undocs.org/S/RES/1373\(2001\)](https://undocs.org/S/RES/1373(2001))
2. 1999-yilgi "Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi xalqaro konvensiya Manba: https://treaties.un.org/Pages/ViewDetails.aspx?src=IND&mtdsg_no=XVIII-11&chapter=18
3. BMTning terrorizmga oid barcha xalqaro konvensiyalari ro'yxati Manba: <https://www.un.org/counterterrorism/international-legal-instruments>
4. ShHT (Shanghai Cooperation Organisation) – Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (RATS) — Markaziy Osiyo bo'yicha rasmi yuridik ma'lumotlar. Manba: <https://www.ecrats.org/>



5. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni (1999-yil 15-dekabr, O'RQ-720) Manba: <https://lex.uz/docs/11953>
6. O'zbekiston Jinoyat kodeksi (terrorizmga oid moddalari) Manba: <https://lex.uz/docs/111453>
7. Global Terrorism Index (GTI) – Yillik statistik ma'lumotlar Manba: <https://www.visionofhumanity.org/global-terrorism-index/>
8. UNODC – Terrorizmga oid BMT ma'lumotlari va statistikasi. Manba: <https://www.unodc.org/unodc/en/terrorism/index.html>
9. Aytimbetov, Utkir Pulatovich. "Terrorizm tushunchasi va o'ziga xosligi". Tadqiqotlar.uz, 2024 <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2513>
10. Ro'ziyoyeva G. Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarning madaniyatimizga salbiy ta'siri. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2024. Manba: <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/33231>
11. Sam Muslim. "Terrorizm va ekstremizm haqida." Murojaat qilingan sana: 23 noyabr 2025.
12. Kursuncu,Ugur;Gaur,Manas;Castillo,Carlos va boshqalar."Modeling Islamist Extremist Communications on Social Media Using Contextual Dimensions: Religion,Ideology,and Hate".2019 manba:<https://arxiv.org/abs/1908.06520>
13. Torregrosa, Javier; Bello-Orgaz, Gema; Martinez-Camara, Eugenio va boshqalar. "A Survey on Extremism Analysis Using Natural Language Processing". arXiv, 2021<https://arxiv.org/abs/2104.04069> 15.Johnson, N. F.; Zheng, M.; Vorobyeva, Y. va boshqalar. "New Online Ecology of Adversarial Aggregates: ISIS and Beyond". arXiv, 2016 <https://arxiv.org/abs/1603.09426>